



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II - QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA	
JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH	
TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	



O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI

Muxtarov Botir Abdusattarovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası katta o'qituvchisi, i.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ichki turizm xizmatlari bozorining 2015–2024-yillardagi rivojlanish tendensiyalari va tarkibiy xususiyatlari tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining (Stat.uz) ma'lumotlari asosida ichki sayohatlar soni, turizm xizmatlari hajmi, mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalari faoliyati, hududiy taqsimot hamda iqtisodiy ta'sir ko'rsatkichlari o'rganilgan. Pandemiyadan keyingi davrda "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturining amalga oshirilishi natijasida ichki turizm jadal rivojlanib, 2023-yilda ichki sayyohlar soni 15 million nafarga yetgan. Tadqiqot jarayonida deskriptiv statistika, dinamik qatorlar tahlili va tarkibiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalar ichki turizm xizmatlari bozorining iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi roli, hududiy rivojlanishdagi ahamiyati hamda istiqboldagi strategik yo'nalishlarini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: ichki turizm, turizm xizmatlari bozori, sayohatlar dinamikasi, hududiy tahlil, statistik ko'rsatkichlar.

Abstract. This article analyzes the development trends and structural characteristics of the domestic tourism services market in the Republic of Uzbekistan during 2015–2024. Based on data from the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (Stat.uz), the study examines the number of domestic trips, the volume of tourism services, the activities of hotels and other accommodation establishments, regional distribution, and indicators of economic impact. In the post-pandemic period, the implementation of the "Travel around Uzbekistan!" program contributed to the rapid development of domestic tourism, with the number of domestic tourists reaching 15 million in 2023. The study employs descriptive statistics, time-series analysis, and structural analysis methods. The findings reveal the role of the domestic tourism services market in promoting economic growth, its significance for regional development, and its prospective strategic directions.

Keywords: domestic tourism, tourism services market, travel dynamics, regional analysis, statistical indicators.

Аннотация. В статье проанализированы тенденции развития и структурные особенности рынка услуг внутреннего туризма в Республике Узбекистан за 2015–2024 годы. На основе данных Национального комитета Республики Узбекистан по статистике (Stat.uz) исследованы количество внутренних поездок, объем туристических услуг, деятельность гостиниц и других средств размещения, региональное распределение, а также показатели экономического воздействия. В постпандемический период реализация программы "Путешествуй по Узбекистану!" способствовала динамичному развитию внутреннего туризма, в результате чего в 2023 году число внутренних туристов достигло 15 миллионов человек. В исследовании использованы методы описательной статистики, анализа динамических рядов и структурного анализа. Полученные результаты раскрывают роль рынка услуг внутреннего туризма в обеспечении экономического роста, его значение для регионального развития и перспективные стратегические направления.

Ключевые слова: внутренний туризм, рынок туристических услуг, динамика путешествий, региональный анализ, статистические показатели.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi so'nggi o'n yillikda mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Xalqaro turizmning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, ichki turizm ham ustuvor strategik yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi. Ichki turizm xizmatlari bozori fuqarolarning mamlakat hududi bo'ylab sayohat qilishi, dam olishi, tarixiy-madaniy meros obyektlari bilan tanishishi hamda turli turistik xizmatlardan



foydalanishini qamrab oladi. Mazkur bozor iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va turizm infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi [1].

2015–2024-yillarda O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish siyosatida muhim tarkibiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi. 2017-yildan boshlab viza tartib-taomillarining soddalashtirilishi, zamonaviy turizm infratuzilmasini shakllantirishga qaratilgan loyihalarning amalga oshirilishi hamda "O'zbekiston bo'ylab sayohat qill!" kabi milliy dasturlarning joriy etilishi ichki turizm faolligining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 2020–2021-yillarda pandemiya bilan bog'liq vaqtinchalik cheklovlar turizm xizmatlari ko'rsatkichlariga ta'sir qilgan bo'lsa-da, 2022-yildan boshlab sohada barqaror tiklanish va jadal o'sish kuzatildi.

Mazkur maqolada O'zbekistonda ichki turizm xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari va tarkibiy xususiyatlari o'n yillik statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ichki turizm bozori rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, mavjud imkoniyatlarni baholash hamda sohani yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki turizm xizmatlari bozori O'zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, so'nggi yillarda qator ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, ichki turizm global turizm oqimining 70–80 foizini tashkil etadi hamda mamlakat ichidagi iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda muhim o'rin tutadi [3]. O'zbekiston sharoitida ichki turizmning rivojlanishi, asosan, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan izchil islohotlar hamda pandemiya keyingi davrda turistik xizmatlarga bo'lgan talabning ortishi bilan bog'liq.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, 2015–2019-yillarda ichki turizm barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etgan. 2020–2021-yillarda pandemiya bilan bog'liq vaqtinchalik cheklovlar turizm ko'rsatkichlariga ta'sir qilgan bo'lsa-da, keyingi davrda soha jadal tiklana boshlagan. 2022-yildan amalga oshirilayotgan "O'zbekiston bo'ylab sayohat qill!" dasturi ichki turistik sayohatlar sonining sezilarli darajada oshishiga xizmat qilgan [4]. Jumladan, Z. B. Kabilova o'z tadqiqotida ichki turizmning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy ahamiyatini yoritib, turizm infratuzilmasi hamda marketing strategiyalarini yanada takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini ko'rsatib bergan [5]. A. I. Yuldoshev esa ichki turizmning rivojlanish istiqbollari va diqqatga sazovor turistik maskanlar misolida hududiy imkoniyatlarni tahlil qilgan [6].

Boshqa tadqiqotchilar, jumladan, Hassanov, Mahmudov va boshqalar ichki turizmni rivojlantirishda infratuzilmani yanada kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish hamda malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish muhimligini ta'kidlaganlar [7]. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hisobotlari hamda Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) tadqiqotlarida ichki turizmning yalpi ichki mahsulotga qo'shayotgan hissasi taxminan 2–3 foizni tashkil etishi va sohaning yangi ish o'rinlarini yaratish salohiyati yuqori ekanligi qayd etilgan [8]. Shuningdek, pandemiya davri tajribasi ichki turizm bozorining moslashuvchanligini namoyon etdi: xalqaro turistik qatnovlar cheklangan sharoitda ham ichki turizm faoliyati muayyan darajada davom etdi [9].

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda, asosan, ichki turizm rivojlanishining umumiy tendensiyalari yoritilgan. Shu bilan birga, xizmat turlari bo'yicha batafsil tarkibiy tahlil hamda o'n yillik dinamik qatorlarni kompleks o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarni yanada kengaytirish zarur. Mazkur maqola ichki turizm xizmatlari bozorining tarkibiy xususiyatlari va uzoq muddatli rivojlanish dinamikasini tizimli tahlil qilish orqali ushbu ilmiy yo'nalishni boyitishga qaratilgan [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ikkilamchi ma'lumotlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy axborot manbasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining (Stat.uz) 2015–2024-yillarda turizm va dam olish sohasi bo'yicha e'lon qilingan press-relizlari, statistik to'plamlari hamda rasmiy hisobotlari tashkil etdi. Shuningdek, Jahon turizm tashkiloti (UNWTO), Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) ma'lumotlari hamda mahalliy olimlarning ilmiy maqolalaridan foydalanildi [1; 8].

Tadqiqot jarayonida quyidagi tahlil usullari qo'llanildi:

- deskriptiv statistika — o'rtacha qiymatlar va o'sish sur'atlarini aniqlash;
- dinamik qatorlar tahlili — rivojlanish tendensiyalari, o'sish tezligi va yillik murakkab o'sish sur'atini (CAGR) hisoblash;



- tarkibiy tahlil — ichki turizm ko'rsatkichlarining hududlar va xizmat turlari bo'yicha taqsimotini baholash;
- jadval va diagrammalar asosida ma'lumotlarni vizuallashtirish.

Tadqiqot ma'lumotlari 2015–2024-yillarni qamrab oladi. Ichki turizmning rivojlanish darajasi “O'zbekiston bo'ylab amalga oshirilgan sayohatlar soni” hamda “ichki sayyohlar va turistik tashriflar soni” ko'rsatkichlari asosida baholandi. Ayrim yillarda ichki turizmdan olingan daromadlar alohida statistik ko'rsatkich sifatida keltirilmaganligi sababli, tahlilda turizm xizmatlarining umumiy hajmi hamda tegishli davlat dasturlari doirasidagi rasmiy ma'lumotlardan foydalanildi [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Ichki turistik sayohatlar dinamikasi (2015–2024-yillar)

O'zbekistonda ichki turistik sayohatlar soni 2015–2019-yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. 2020-yilda pandemiya bilan bog'liq vaqtinchalik cheklovlar natijasida mazkur ko'rsatkich sezilarli darajada qisqargan. 2021-yildan boshlab ichki turizm bozori bosqichma-bosqich tiklana boshlagan, 2022-yildan esa “O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!” dasturining amalga oshirilishi natijasida ichki sayohatlar sonida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan.

1-jadvalda O'zbekistonda 2015–2024-yillarda amalga oshirilgan ichki turistik sayohatlar soni va ularning yillik o'sish sur'atlari keltirilgan. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda tadqiqotda foydalanilgan boshqa manbalar asosida shakllantirilgan [1; 4; 6] (1-jadval).

1-jadval
O'zbekistonda ichki turistik sayohatlar sonining dinamikasi, 2015–2024-yillar¹

Yil	Ichki sayohatlar soni, mingta	O'sish sur'ati, %	Izoh
2015	1 938	—	Boshlang'ich ko'rsatkich
2016	2 034	4,95	O'sish tendensiyasining shakllanishi
2017	2 146	5,50	Turizm sohasidagi islohotlarning faollashuvi
2018	2 256	5,13	Turizm infratuzilmasining rivojlanishi
2019	2 481	9,97	Pandemiyagacha bo'lgan davrdagi eng yuqori ko'rsatkich
2020	1 069	–56,91	Pandemiya bilan bog'liq vaqtinchalik qisqarish
2021	2 163	102,34	Ichki turizmning bosqichma-bosqich tiklanishi
2022	11 400	427,14	Milliy dastur doirasidagi faoliyatning kengayishi
2023	15 000	31,58	Ichki turistik sayohatlarning jadal o'sishi
2024	22 700*	51,33	Eng yuqori natijaning qayd etilishi

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2015–2024-yillarda ichki turistik sayohatlar sonining o'rtacha yillik murakkab o'sish sur'ati (CAGR) pandemiya ta'siri hisobga olingan holda taxminan 31,5 foizni tashkil etgan [8].

2. Turizm xizmatlari bozorining tarkibiy tuzilishi

Ichki turizm xizmatlari bozori, asosan, joylashtirish, umumiy ovqatlanish, transport, turistik agentliklar va ekskursiya xizmatlaridan tarkib topgan. Joylashtirish xizmatlari mehmonxonalar, xostellar, dam olish uylari va boshqa turdagi joylashtirish vositalarini qamrab oladi. 2024-yilda 743 ta turistik kompaniya tomonidan jami 1 972,9 ming nafar sayyohga, shu jumladan, ichki sayyohlarga xizmat ko'rsatilgan. Mazkur davrda joylashtirish infratuzilmasi ham izchil rivojlanib, 124 ta yangi mehmonxona va 239 ta xostel faoliyati yo'lga qo'yilgan. Natijada joylashtirish vositalarining umumiy sig'imi 161 ming o'ringa yetgan [11] (2-jadval).

¹ **Manba:** O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining press-relizlari hamda tadqiqot ma'lumotlari. 2015–2021-yillar bo'yicha ichki sayohatlar soni, 2022–2024-yillar bo'yicha esa “O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!” dasturi doirasida amalga oshirilgan umumiy sayohatlar soni asos qilib olingan [1; 4].



2-jadval

Ichki turizm xizmatlari bozorining xizmat turlari bo'yicha tarkibiy taqsimoti, 2024-yil²

Xizmat turi	Ulushi, %	Taxminiy hajmi, mln so'm	Izoh
Joylashtirish xizmatlari — mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalari	45	12 500	Bozor tarkibidagi eng yuqori ulush
Umumiy ovqatlanish va restoran xizmatlari	25	6 900	Milliy gastronomik xizmatlarning rivojlanishi
Transport xizmatlari	15	4 150	Ichki aviaqatnovlar, temiryo'l va avtobus xizmatlari
Turistik agentliklar va ekskursiya xizmatlari	10	2 770	Turistik dasturlar doirasida ko'rsatiladigan xizmatlar
Boshqa xizmatlar — suvenirilar, madaniy tadbirlar va ko'ngilochar xizmatlar	5	1 380	Qo'shimcha turistik xizmatlar

Ichki turizm bozorining hududiy tarkibi

2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, ichki turistik oqimlarning hududlar bo'yicha taqsimotida Toshkent shahri va Toshkent viloyati 25 foiz ulush bilan yetakchi o'rinni egallagan. Samarqand viloyatining ulushi 18 foizni, Buxoro viloyatining ulushi 15 foizni, Farg'ona vodiysi hududlarining ulushi esa 12 foizni tashkil etgan. Qoraqalpog'iston Respublikasiga ichki turistik oqimlarning 8 foizi, boshqa hududlarga esa 22 foizi to'g'ri kelgan. Mazkur taqsimot hududlarning tarixiy-madaniy merosi, tabiiy-rekreatsion resurslari, transport infratuzilmasi hamda turistik xizmatlar ko'rsatish salohiyati bilan bog'liq [6] (3-jadval).

3-jadval

O'zbekistonda mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalari sonining dinamikasi, 2015–2024-yillar³

Yil	Mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalari soni	Umumiy o'rinlar soni, mingta	Ichki sayyohlar ulushi, %
2015	850	45	75
2019	1 200	70	80
2020	1 050	65	65
2023	5 526	120	82
2024	5 650 dan ortiq, shu jumladan, 124 ta yangi mehmonxona	161	85

3. Iqtisodiy ko'rsatkichlar va ta'sir

2017-yil ma'lumotlariga ko'ra, ichki turizmning turizm sohasida yaratilgan yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 80 foizdan ortiqni tashkil etgan. Keyingi yillarda ham mazkur ko'rsatkich nisbatan yuqori darajada saqlanib qolgan. 2024-yilda ichki turizm sohasining rivojlanishi natijasida 51 mingta yangi ish o'rni yaratilgan. Ichki turizm xizmatlaridan olingan daromadlar hajmi esa 2024-yilda taxminan 25–30 trillion so'mni tashkil etgan [8].

Tahlil natijalari 2015–2024-yillarda O'zbekistonda ichki turizm xizmatlari bozori jadal rivojlanganini ko'rsatadi. Mazkur o'sishga davlat dasturlarining izchil amalga oshirilishi, turizm infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining ortishi hamda pandemiyadan keyingi davrda ichki turistik xizmatlarga bo'lgan talabning oshishi asosiy omil bo'lgan. Bozorning tarkibiy tuzilishida joylashtirish xizmatlari yetakchi o'rinni egallaydi. Shu bilan birga, umumiy ovqatlanish, transport, ekskursiya va boshqa qo'shimcha xizmatlar segmentlarida ham barqaror rivojlanish kuzatilmoqda.

Ichki turistik oqimlarning hududiy taqsimotida markaziy va tarixiy-madaniy salohiyati yuqori bo'lgan hududlar yetakchilik qilmoqda. Bu holat boshqa hududlarning mavjud tabiiy, madaniy va rekreatsion imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish, yangi turistik yo'nalishlarni shakllantirish hamda hududlararo turistik aloqalarni kengaytirish uchun muhim imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi [5; 6].

Ichki turizm xizmatlari bozorining kelgusidagi rivojlanishi mavsumiylik ta'sirini kamaytirish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ayrim hududlarda turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish bilan uzviy

2 **Manba:** O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2024-yilgi hisoboti hamda muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan [11].

3 **Manba:** O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) hisobotlari asosida tuzilgan [8; 11].



bog'liq. Pandemiya davri tajribasi ichki turizm bozorining o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish salohiyatini namoyon etdi. Xalqaro qatnovlar cheklangan davrda ham ichki turistik faoliyatning davom etishi sohaning mamlakat iqtisodiyoti uchun muhimligini tasdiqladi.

Kelgusida raqamli texnologiyalarni, jumladan, onlayn bronlash, elektron to'lov va mobil turistik xizmatlarni keng joriy etish, shuningdek, ekologik, qishloq, gastronomik va ziyorat turizmini rivojlantirish orqali ichki turizm xizmatlari bozorini yanada kengaytirish mumkin. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilishi ichki turizmning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi [2; 10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda ichki turizm xizmatlari bozori 2015–2024-yillarda strategik ahamiyat kasb etib, mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududiy rivojlanishni jadallashtirishga salmoqli hissa qo'shdi. Statistik tahlil natijalari ichki turizm bozorida barqaror o'sish tendensiyasi shakllanganini, o'rtacha yillik murakkab o'sish sur'ati (CAGR) taxminan 31,5 foizni tashkil etganini, joylashtirish xizmatlari bozor tarkibida yetakchi o'rin egallaganini hamda "O'zbekiston bo'ylab sayohat qill!" dasturi ichki turistik faollikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etganini ko'rsatdi. Ichki turizm iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash bilan birga, yalpi ichki mahsulotning 2–3 foizini shakllantirish, 50 mingdan ortiq yangi ish o'rnini yaratish, hududlararo ijtimoiy-madaniy aloqalarni mustahkamlash, milliy qadriyatlar va madaniy merosni asrab-avaylash hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim vosita hisoblanadi.

Kelgusida ichki turizm xizmatlari bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun turizm infratuzilmasini hududiy jihatdan diversifikatsiya qilish, xususan, Farg'ona vodiysi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va tog'li hududlarda yangi turistik loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, turistik xizmatlar sifatini oshirish, onlayn bronlash, elektron to'lovlar, mobil ilovalar va virtual turizm imkoniyatlarini qamrab oluvchi raqamli platformalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Turizm sohasi uchun zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari, turistik tashkilotlar va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Ekologik, qishloq va agroturizm yo'nalishlarini rivojlantirish turistik xizmatlarni yil davomida taklif etish, mavsumiylik ta'sirini kamaytirish hamda qishloq hududlarida aholi bandligi va daromadlarini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish hamda Turkiya va Rossiya kabi mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan milliy sharoitga mos ravishda foydalanish ichki turizm bozorining raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari davlat boshqaruvi organlari, turizm sohasi tadbirkorlari va ilmiy jamoatchilik uchun muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ichki turizmni "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlantirishga ko'maklashadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda ichki turizmning aholi farovonligi, hududiy bandlik, ijtimoiy integratsiya va madaniy merosni asrab-avaylashga ta'sirini yanada chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *2023-yilda O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari*. — Toshkent: Stat.uz, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. *Turizm statistikasiga oid ko'rsatkichlar*. — Toshkent, 2024.
3. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). *Tourism Towards 2030: Global Overview*. — Madrid, 2023.
4. "O'zbekiston bo'ylab sayohat qill!" dasturi doirasida ichki turizmning rivojlanishi. — Gazeta.uz, 2023.
5. Kabilova, Z. B. Respublikada ichki turizmni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari // *Universal Scientific Research*. — 2024.
6. Yuldoshev, A. I. O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish istiqbollari // *CyberLeninka*. — 2025.
7. Hassanov va boshqalar. O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar // *ResearchGate*. — 2024.
8. World Travel & Tourism Council (WTTC). *Uzbekistan Economic Impact Report*. — 2025.
9. Mustanov, N. O'zbekistonda ziyorat turizmi va ichki turizmni rivojlantirish tamoyillari // *CyberLeninka*. — 2021.
10. Isadjanov, A. *Tourism Development in Uzbekistan: Current State and Prospects*. — CORE, 2023.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Development of Tourism and Recreation in the Republic of Uzbekistan for 2024*. Press-reiz. — Toshkent, 2025.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>